



Conceptual analysis of the novel "The Box Man" in the works of Kobo Abe

Laylo JALOLOVA¹

Samarkand State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received February 2024

Received in revised form
28 February 2024

Accepted 20 March 2024

Available online

15 April 2024

Keywords:

concept,

Cognitology,

conceptual analysis,

box man, symbol,

fish, isolation,

A. Chekhov "Man in a case",

external world.

ABSTRACT

The article presents a conceptual analysis of the novel "The Box Man" by the Japanese writer Kobo Abe. The work examines the main images through the prism of satire: Japanese social life, human values, socio-economic changes, and the style of the modern world. The novel also explores specific concepts, linking their spiritual ideas to the conceptual realm of the work.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss3/S-pp246-250>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Kobo Abe ijodidagi "Yashik odam" romanining konseptual tahlili

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada yapon yozuvchisi Kobo Abening "Yashik odam" romani konseptual tahlil qilindi. Romandagi asosiy tasvirlar Yaponiyadagi ijtimoiy hayot, inson qadri, ijtimoiy-iqtisodiyotning o'zgarishi, zamonaviy dunyo tarzi satirika orqali tasvirlangan. Romanda o'ziga xos konseptlar bo'lib, ularning ma'naviy g'oyalari asar konseptosferasi bilan bog'liqligi haqida fikr yuritildi.

Kalit so'zlar:

konsept,

kognitologiya,

konseptual tahlil,

yashik odam,

simvol,

baliq,

izolyatsiya,

Kobo Abe,

A. Chexov,

g'ilof bandasi,

tashqi olam.

¹ Student, Samarkand State Institute of Foreign Languages

Концептуальный анализ романа «Человек-ящик» в творчестве Кобо Абэ

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

концепт,
когнитология,
концептуальный анализ,
человек-ящик,
символ,
рыба,
изоляция,
А. Чехов,
«Человек в футляре»,
внешний мир.

Статья представляет концептуальный анализ романа японского писателя Кобо Абэ «Человек ящик». В произведении через призму сатиры рассматриваются основные образы: общественная жизнь Японии, человеческие ценности, социально-экономические изменения и стиль современного мира. Также в романе исследуются конкретные понятия, связывая их духовные идеи с концептуальной сферой произведения.

KIRISH

Asarlarni konseptual tahlil qilishda konsept, konseptosfera kabi atamalarning uchrashi hozirgi adabiyotshunoslikni yangi bosqichga ko'targan. Konsept kognitiv tilshunoslikning birligidir. Kognitiv tilshunoslikning kognitologiya bo'limi bilish nazariyasi hamda insonning bilish faoliyati haqidagi fandır. Konseptlar ma'lum bir tushunchani anglatib, barchaga ma'lum bo'lgan dunyo haqidagi subyektiv milliy g'oyalarni bildiradi, shu tushunchalar yig'indisi konseptosfera deb ataladi. Sh. Safarov "Kognitiv tilshunoslik" risolasida konseptga shunday ta'rif beradi: "*Konsept mazmun jihatidan bir tomondan voqelik bilan munosabatda bo'lsa, ikkinchi tomondan esa lisoniy belgisiz bevosita munosabatga kirishadi*" [7;47]. Asarlarni konseptual tahlil qilish jarayonida asarda konseptlarni qay darajada umumiy va xususiy ma'nolarni anglatishi hamda ma'lum bir xalqning adabiyoti, tarixi, ijtimoiy dunyosiga oid milliy qarashlar asosga olinib tahlil qilinadi. Har bir asar tahlilida birinchi o'rinda milliy ruhning boyligi muhim ahamiyatga ega, tahlilda asar konseptosferasini anglash inson va voqelik munosabatida yuzaga keladigan mental tasavvur bilan bog'liqdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Jahon adabiyotida tan olingan chuqur ahamiyat kasb etuvchi romanlar va yozuvchilar mavjud bo'lib, ular o'z ijodiyoti orqali umumbashariy g'oyalarni barcha xalqlar uchun birdek tatbiq etgan. Shunday yozuvchilardan biri yapon adibi Kobo Abe bo'lib, uning "Yashik odam" romani o'ziga xos ijtimoiy o'ringa ega. Kobo Abe ijodiyotini o'rgangan tadqiqotchilar E.L. Skvorsova [8;183] K.A. Ivanova [1;297], O.V. Konnova [2;21], P.V. Palievskiy [5;97], D.A. Tatarskaya [9;181], N. Fedorenko [10;5] Kobo Abening ijodiy yo'lini yaxshi o'rganishgan.

Kobo Abening "Yashik odam" romani allegoriya asosida yozilgan bo'lib, roman ramziylikka xoslangan. Romanda bosh qahramonning asl kasbi fotomuxbir bo'lib, u yashik kiyib, yashik ichida kun kechirgan. Romanda yashik odam eslatmalar yozishni boshlaydi, u quti qanday yasalishi, jihozlanishi haqida ko'rsatmalar beradi. Romanda har bir yashik odamning o'z hikoyasi bor. Qahramon A. derazasi oldidagi yashik odam haqida hikoya qiladi. A. g'azablanib yashik odamni yelmiltiq bilan otadi. Keyinchalik A. yangi muzlatgich sotib oladi, muzlatgich qutisiga kirishga ishtiyoq paydo bo'ladi va bir haftadan keyin u butunlay qutiga o'rganib qolib yashik odamga aylanadi va uyini tark etadi. Asarda eslatmalar yozadigan odam voqelikni goh yashik odam tomonidan, goh o'zga shaxs tomonidan yozadi, uning nutqi dialog shaklida bo'lib, qahramonlar bilan bog'liq hodisaning ro'y berishi romanda to'liq yoritilmagan. Biroq butun

voqelikni birgina yashik odam yozgan degan to'xtamga ham kelish mumkin. Yashik odamga bir qiz yashigidan voz kechishi uchun pul taklif qiladi. Qiz kasalxonada hamshira ekanligi, shifokor esa yashik odamni miltiq bilan otgan shaxs ekanligi namoyon bo'ladi. Asarda keyinchalik shifokor ham yashik ichida kun kechirishni boshlaydi va asarda "soxta yashik odam" nomini oladi. Soxta yashik odam asli qotil bo'lib, harbiy shifokorni giyohvandlikka o'rgatib, vafotiga sabab bo'lgan. Romanda bir nechta inson yashik kiygani aytilgan, A.personaj, S.personaj, vafot etgan shifokor ham o'limidan oldin yashik kiyib, ko'chaga chiqqanligi, bosh qahramonning otasi ham yashik kiyganligi keltrilgan.

Romanda muallif personajlarning yashik ichida yashash obrazini yaratganligining sababi turlicha talqin etilgan. Romanning ilk sahifalarida

"Кеча Уено саёқлардан тозаланди. 180 киши қамоққа олинди" [6;3] sarlavha ostidagi eslatmada Ueno rayonida qotillik sodir bo'lganligi, Ueno vokzalini sayoqlar qurshab olganligi, sayoqlik taqiqlangan joyga kirib qonunni buzganliklari uchun 180 kishi qamoqqa olinishi yozilgan. Romanda aynan o'sha davrdagi uysizlik muammosi nazarda tutilgan, uysiz kimsalar sargardonligi mavzusi yoritilgan. Insonlarning yashik kiyib yurishiga sabab bir tomondan jamiyatda uysiz sayoq yurganlar politsiya ko'zidan nari bo'lishi bo'lsa, ikkinchi tomondan falsafiy ma'no ya'ni jamiyatdagi barcha soxtalik va ikkiyuzlamachilikdan inson o'zini yashik orqali izolyatsiya qilishi tasvirlangan. "Yashik odam" romani syujet jihatidan ko'p qatlamli bo'lib, romanda inson ruhi tasviri, haqiqiy inson "meni"ni izlash va yo'qotish muammosi ko'tariladi. Bosh qahramon karton yashikka joylashib, real dunyoda hamda "meni" ko'p bo'lgan labirintda kezib yuradi, u o'zini topa olmaydi. Natijada, qahramon odamlar orasida yolg'izlikdan vafot etadi [4;135]. Yashik odamga ayalanish haqida so'z borarkan, jamiyatda yovuzlikning bo'lmasligi, jamoatchilik bosimi ostida o'z shaxsining ahamiyatsizligini his qilish kabi kechinmalar bosh sababdir. Yashik odam yashikdagi o'ziga xos hayotning afzalligini aytadi, yashikdan tashqariga qaraganda yashik ichidan tashqi dunyodagi yolg'on, yovuz niyatli kishilarni yaqqol ko'rish mumkinligini ifoda etadi. Romanda yashik odam jamiyatga zarar yetkazmaydi hamda jamiyatdagi ommaning ham unga bosim o'tkazishini xohlamaydi. Yashik kiygan odamlarni jamiyat o'z taqdiriga "beparvo" deb o'ylashi mumkin, shuningdek, tashqi omma yashik odamlarni ko'rganda e'tibor berishmaydi, ularning o'z atrofidagi insonlarga ham yashik odamga nisbatan qaragandek beparvoligi yoritilgan. Buni jamiyat hayotidagi insonlar xarakteridagi kamchiligi deb atash mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Kobo Abening "Yashik odam" romanida obrazlilikni oshiradigan ramziy timsollar bo'lib, ular qahramon obrazi, insonning ruhiyati, jamiyat holatini ifoda etadi. Ramziy timsollar: yashik, baliq, vaqt, chig'anoq o't, yalang'ochlik. Romanda chig'anoq o't haqida rivoyat keltirilib, kimki uni hidlasa tushida baliqqa aylanib qolishi, chig'anoq o'tning hidi insonni suvda sho'ng'itgandek his qildirishi haqida aytiladi:

"Уйқунинг ўзи қийин эмас, ўйғониш қийин. Ростакам балиқ вақтни қандай ҳис қилади-номаълум бироқ, тушида балиқ бўлганлар учун вақт ўнгдагига нисбатан бутунлай бошқача ўтади. Вақт харакати тезлиги кескин камаяди- оддий сониялар кунларга, ҳафталарга айлангандек бўлиб туюлади" [6;30]

Ushbu tasvir zamirida timsol bo'lib, baliq bu- odam, chig'anoq o't – yashik ramzlariga ishora qiladi. Yashik ichidagi hayotda vaqt birligi sekin o'tishi, yashikdagi dunyo xuddi tushga o'xshashi undan voz kechish qiyinligi ramziy ifodalangan. Rivoyatda soxta baliq ham bo'lib, uning oyoq qo'li, quloqlari bo'yni va yelkasi yo'q deb tasvirlanadi. Soxta baliqning po'sti tangacha tangacha qop deb ta'riflanadi, tangacha qop – yashikka ishora.

“Аъзойи бадани қонга тўлаётгандек, ғужанак бўлиб жон талвасасида титраётган сохтабалиқни: бирдан сохтабалиқ бўлиб чиқсам-а, деган машъум шубҳа қуршаб олади” [6;31].

Soxta baliq romandagi soxta yashik odamdir, soxta baliq qo'lsiz oyoqsiz, ko'rgan narsalarini ushlab his qilolmaydi, uning baliq qopi xalaqit qiladi. Yashik odam ham hamshira qizni yoqtiradi lekin u bilan munosabatiga faqat yashigi to'sqinlik qilishini timsollar orqali tasvirlagan. Mazkur ramziy rivoyatda ma'lumki, yashik odam ham soxta yashik odam ham bir obrazdir. Faqat ularning haqiqiy yoki haqiqiy emasligi tashqi dunyodan uzilish yoki uzilmasligi bilan bog'liq. Kobo Abe romanida hodisani so'z bilan ifodalashdan ko'ra timsollar ko'p qirralikni yuzaga keltirgan. Bosh qahramon uchun yashik tasviri inson qadriyatlarini yo'qolishi timsoliga aylanadi. Qahramon yashikdan ayrilishni ichki va tashqi qobiqdan mahrum bo'lishlik deb hisoblaydi. Epizodlar davomida yalang'och inson tanasiga oid ko'plab syujetlar birikkan. Yalang'ochlik konsepti nafaqat tashqi ko'rinish, balki insonning ichki kechinmalariga ishora sifatidagi g'oyani ilgari surgan. Yashik odamni yashikdan voz kechishi yoki uni bir muddatga yechib turishi uning tashqi va ichki dunyosida ham hech qanday tuyg'u qolmasligi ya'ni psixologik olami yalang'och bo'lib qolishidan darak beradi. Yalang'ochlik konsepti romanda asosan ayol (hamshira) obraziga tegishli bo'lib, ayol voqelik jarayonida o'ziga xos markazga aylanadi. U nafaqat jismoniy jozibadorlik ob'yektiga aylanadi, balki hayotning asl dominant timsolidir. Aynan u yashik odamni yolg'izlikdan qutqarishga, dushman jamiyatiga zarba berishga kuch berishga qodir [4;136].

Kobo Abeningning “Yashik odam” romani uning ijodidagi yangi burilish hisoblanadi. Kobo Abe rus adibi Anton Chexovning “G'ilof bandasi” nomli hikoyasining o'xshashi bo'lgan “yashik odam” obrazini yaratdi. Chexovning hikoyasida “g'ilof” mohiyatiga boshqacha tarzda qaraydi: qahramon uchun g'ilof o'zini o'zi anglash imkoniyatiga aylanadi. Chexovning hikoyasida g'ilof insonning jamiyatida o'z o'rnini topishga qaratilgan. Kobo Abe romanida yashik odam o'zligini topolmaydi:

“Бироқ мен нима учундир ҳалигача бирор марта ҳам балиққа айланганим йўқ, Неча марта уҳладим, лекин яшик одамлигимча қолавердим. Бундоқ ўйлаб кўрилса, сохтабалиқ билан яшик одам ўртасида менинг тасаввуримча унча катта фарқ йўқ, Яшик кийиб мен ўзим бўлмаган сохта ўзимга айладим” [6;33]

Ramziylik ichida ramziylikni yuzaga keltiruvchi romanda “baliq” konsepti va “yashik” konseptlari insonni soxta ko'rinishga olib kelgan qahramon o'zining kamchiligida jamiyat muhiti sababchiligini “soxta baliq”, “soxta yashik” konseptlari orqali yoritgan. Yashik odam o'zini “chig'anoqdagi qisqichbaqa”ga qiyoslaydi, u uch yil yashik ichida yashaydi va qisqichbaqa ham chig'anoqqa kirib yashashi bilanoq gavdasining orqa qismi chig'anoqqa qo'shilib jipslashib ketishi, agar uni chig'anoqdan yulib olsa qisqichbaqa nobud bo'lishi holatini xuddi o'zi va yashik munosabatiga o'xshatgan. Romanda insonning sovuqqonligiga sababchi omillardan biri axborot oqimi deb topilgan. Qahramon o'zini salbiy xabarlardan zaharlanganligini aytib, ko'chada vafot etgan odamning jasadini yangilik sifatida suratga olmoqchi bo'ladi va bu fikridan qaytadi. Romanda “Йиқилиб йотган одамга юз минг киши эътибор бермади” nomli qismida yer osti o'tish joyida vafot etgan odamga hech kim e'tibor bermaydi, bu tasvir yordamida yashik odam o'zining tashqi dunyodagi kimsalarning e'tiborsiz ekanligini isbotlagan.

XULOSA

Yapon adabiyoti asarlarida milliylik, ichki omillar, inson psixologizmi kuchli tasvirlanib, konseptosferik yondashuvlarni belgilaydi. Kobo Abe “Yashik odam” romani orqali inson

jamiyatdan uzilsa, jamiyatning shaxs oldida hech qanday majburiyati yo'q degan e'tiqodning yolg'onligini isbot etishga harakat qiladi.

Romanning ma'naviy g'oyasi inson bilan jamiyat munosabatlarida inson qadri birinchi o'rinda turishi, agar inson o'zligini yo'qotsa bunga eng avvalo atrof muhiti sababchi bo'lishi o'ziga xos simvollar orqali aniqlagan. Roman fantastik va real dunyo bilan farq qiladi, muallif gazeta yoki maqoladan foydalanib, sodir bo'layotgan voqealarning asli tub mohiyatiga (realiga) urg'u beradi. Asardagi hayoliy olam ham xayoliy emasdek seziladi, balki xayollar ta'sirida vujudga kelgan real olam hodisalari tasnifidir.

Romanda yolg'izlik konsepti – go'zallik darajasiga tenglashtirilgan, tabiiyki, yashik odam uchun yolg'izlik xos va u yolg'izligidan afsuslanmaydi, unga go'zallik sifatida qaraydi. D. Mateev Kobo Abening personajlari haqida fikr bildirgan:

“Kobo Abe inson va dushman dunyo ziddiyatlarini yoritgan. Kobo Abe qahramonlari burjua dunyosida yolg'iz va uning hayotda qo'llab – quvvatlashga qaratilgan barcha urinishlari jamiyat unga qarshi bo'lganligi sabab yo'qolgan: u yashayotgan dunyodagi yolg'izlik insoning o'ziga xosligi bilan emas, bu dunyo tabiatiga ko'ra bu yerda hamma o'z-o'zidan jamiyat deb ataladigan dushmanga qarshilik ko'rsatadi” [3;51]. Romandagi konseptlarning har biri inson qadrini yo'qolishiga sababchi jamiyatni pozitsiyasini belgilaydi. Asar o'ziga xos yapon jamiyatidagi konfliktni tasvirlab adabiy tahlilga mos konseptlarni yuzaga keltirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Иванова К.А. Особенности экзистенциализма в романе Кобе Абе “Чужое лицо”// Актуальнџе вопросы региональных и международных исследований Материалы III региональной студенческой научно-практической конференции на иностранных языках с международным участием. 2016. – 297- 300 с.
2. Коннова О.В. К вопросу о философском смысле метафоры в романе Кобе Абе “Женщина в песках”/ О.В. Коннова // Научный прогресс и его роль Сборник материалов VII(LIX) Международной научно практической кофрэнции.-2015.-С. 21-25.
3. Матеев. Д.А. Феномен одиночества и проблема нарушения коммуникации. Монография. Новосибирск. 2012.-190 с.
4. Машукова Д.А. Жизнь в ящике как аналогия футлярной жизни в романе К. Абе Человек ящик// Международный научно-исследовательский журнал №6, (96) Часть 3. 2020. 135 с. DOI:<https://doi.org/10.23670/IRJ.2020.96.6.105>
5. Палиевский П.В. Путь к преодолению. О романе Кобе Абе “Женщина в песках”/ П.В. Палиевский// Иностранная литература -1966.-№5- 97-100 с.
6. Рахмон С. Ящик-одам: Роман. (Рус тилидан таржима) – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти.1986. -144 б.
7. Сафаров. Ш. Когнитив Тилшунослик. Рисола. “Сангзор” нашриёти, 2006. 92-б.
8. Скворцова. Е.Л. Абе и Булгаков. Попытка сравнения / Е. Л. Скворцова// Теортические проблемы изучения литератур Дальнего Востока. – М.: Наука, 1988. – 183-188 с.
9. Татарская Д.А. Образ души в романе Кобе Абе “Чужое лицо”/ Д.А. Татарская// Новый взгляд Сборник V конференции молодых японоведов.-2014.- 181-185 с.